



AGATA KRISTINING INDIVIDUAL USLUBI VA TARJIMA MUAMMOSI
("10 TA NEGR BOLASI" ROMANI MISOLIDA)

Roziqova Nigora Abdusattorovna

O'zbekiston davlat sharqshunoslik
universiteti xorijiy til va adabiyoti
yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Agata Kristining "O'nta negr bolasi" asari dunyo adabiyoti tarixida eng mashhur detektiv romanlardan biri hisoblanadi. Ushbu asar turli tillarga tarjima qilingan bo'lib, tarjima jarayonida madaniy kontekst, lingvistik nozikliklar va ijtimoiy stereotiplar kabi muammolar yuzaga keladi. Mazkur maqolada asarning o'zbek tilidagi tarjimasi tahlil qilinadi, unda tarjimon tomonidan ishlatilgan usullar, lingvistik ekvivalentlik va madaniy moslashuv darajasi baholanadi. Tarjima jarayonida duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklar, xususan, muallifning o'ziga xos uslubi va asar mazmunini yetkazish masalalari chuqur yoritiladi. Maqolada, shuningdek, tarjimada leksik va semantik o'zgarishlarni ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Agata Kristi, detektiv roman, tarjima nazariyasi, lingvistik ekvivalentlik, madaniy moslashuv, leksik tahlil, semantik tahlil, madaniyatlararo kommunikatsiya, "O'nta negr bolasi", o'zbek adabiyoti.

Adabiyot tarjimasi madaniyatlararo aloqalarning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat til o'ziga xosliklarini, balki asar orqali muallif yaratgan mazmun va g'oyani boshqa madaniyatga yetkazishni ham o'z ichiga oladi. Agata Kristining "O'nta negr



bolasi” asari, o‘zining murakkab psixologik tahlillari va chuqur intrigalari bilan, jahon detektiv adabiyotining durdonasi sanaladi. Ushbu asar o‘zbek tiliga tarjima qilinganida, bir qator lingvistik va madaniy muammolar yuzaga keladi. Mazkur maqolada asarning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi jarayoni va unda yuzaga keladigan asosiy muammolar ko‘rib chiqiladi. Xususan, tarjimada ishlatilgan uslublar, muallifning o‘ziga xos tili va madaniy unsurlarni boshqa madaniyatga moslashtirish masalalari tahlil qilinadi. Kirish qismida tarjimaning adabiy va lingvistik tadqiqotlardagi o‘rni, shuningdek, “O‘nta negr bolasi”ning turli tillardagi qabul qilinishi muhokama qilinadi. Maqola davomida tarjimaning o‘zbek madaniy muhitiga mosligi va uning adabiy qiymati baholanadi.

Agata Kristining “O‘nta negr bolasi” asarida syujetning asosiy konstruksiyasi boshida keltirilgan she‘rga asoslangan. Ushbu she‘r asardagi voqealar rivojini belgilovchi birlamchi poetik element sifatida xizmat qiladi. Asarning o‘zbek tilidagi tarjimasida tarjimon she‘rni qofiyaga moslashtirishga intilgan, ammo bu jarayonda uning mazmunini sezilarli darajada o‘zgartirgan. Natijada, she‘r asliyatdagi g‘oyaviy va dramatik ahamiyatini yo‘qotib, syujet va she‘r o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik zaiflashgan.

Asliyatda she‘r asardagi har bir qahramonning fojiali taqdirini bashorat qilish va ularning o‘zaro bog‘liqligini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Tarjimadagi bu o‘zgarish esa nafaqat asarning umumiy hissiy muhitini, balki uning strukturaviy yaxlitligini ham buzadi. She‘rning poetik formasini saqlab qolish muhim bo‘lsa-da, mazmunning bu qadar o‘zgartirilishi asarning o‘ziga xosligini yo‘qotishiga olib keladi. Bu tarjima nazariyasida “mazmun ustuvorligi” tamoyilining buzilganidan dalolat beradi. Ushbu o‘zgarish tarjimonning asliyatga sodiqlik darajasi va tarjima jarayonidagi adabiy mas‘uliyatni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shuningdek, syujetning she‘rga asoslanganligi sababli, tarjimada she‘r va voqealar rivoji o‘rtasidagi muvofiqlikni ta‘minlash o‘ta muhimdir.



Agata Kristining “O‘nta negr bolasi” asaridagi she’rning birinchi satri asliyatda quyidagicha:

“Ten little nigger boys went out to dine;

One choked his little self, and then there were nine.”

Bu satr voqealarning boshlanish nuqtasi bo‘lib, dastlabki qahramonning o‘lim sababini aniqlab beradi. She’rning o‘zbek tilidagi tarjimasida ushbu qator quyidagicha o‘zgartirilgan:

“O‘nta negr bolasi, bordi tushlik qilgali,

Biri tiqilib o‘ldi, to‘qqiz qoldilar bari.”

Mazkur tarjimada “choked” (nafas ololmay qolmoq yoki bo‘g‘ilib qolmoq) so‘zi “tiqilib o‘ldi” deb ifodalangan. Ushbu tarjima mazmunan yaqin ko‘rinsa-da, “tiqilib” so‘zi asliyatdagi voqeaning mazmunini to‘liq aks ettira olmaydi. Ingliz tilidagi “choked” so‘zi nafislik bilan ma’lum darajada noxushlikni ifodalaydi va bu voqeaga psixologik urg‘u beradi, o‘zbekcha “tiqilib” esa haddan tashqari oddiy va texnik ma’noda ifodalanadi. Natijada, asliyatdagi hissiy va dramatik ta’sir yo‘qoladi. “Choked” so‘zi tarjimada semantik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-da, uning psixologik va hissiy ma’nolari inobatga olinmagan. Masalan, “nafasi qaytmay o‘ldi” yoki “nafasi to‘xtab o‘ldi” kabi variantlar hissiy ta’sirni kuchaytirgan bo‘lar edi. She’r asliyatida qahramonlarning birin-ketin o‘limi muayyan ritm va dramatik ifoda bilan tasvirlangan. Tarjimada esa bu ritmik jarayonning hissiyati yo‘qolib, oddiy hodisalar ketma-ketligiga o‘xshab qolgan.

O‘zbek tilidagi tarjimada esa bu satr quyidagicha ifodalangan:

“To‘qqiz negr bolasi miriqib qildi tushlik,

Biri uyg‘ona olmay, sakkiz qoldilar sho‘rlik.”



Asliyatda she'rda "sat up very late" iborasi qo'llangan bo'lib, bu "kech uyg'oq o'tirish" yoki "kechasi uxlamay vaqt o'tkazish" degan ma'noni anglatadi. Tarjimada esa bu ibora noto'g'ri tushunilib, "miriqib qildi tushlik" deb tarjima qilingan. Bu mazmunni mutlaqo o'zgartirib yuboradi, chunki asl she'rda voqea kechasi sodir bo'ladi, tarjimada esa "tushlik" (kunduzgi ovqat) bilan bog'langan. Asliyatda "One overslept himself" (uxlab qolib, uyg'ona olmaslik) iborasi qahramonning uxlab qolib o'lishini nazarda tutadi. Tarjimada bu ibora "uyg'ona olmay" deb berilgan bo'lsa-da, o'lim sababi va hodisaning tafsiloti aniq ifodalanmagan. Natijada, o'quvchi uchun qahramonning qanday o'lganini tushunish qiyinlashadi. Asliyatdagi she'r ritmi va dramatik hissiyotlari tarjimada zaiflashgan. "Miriqib qildi tushlik" ifodasi voqeaga yengillik bag'ishlaydi, bu esa asarning keskin va dramatik atmosferasini buzadi. Tarjimada "tushlik" kabi so'zlarni qo'llash asliyatdagi voqeaning vaqtiga mos kelmaydi. Tarjimon asliyatdagi hodisalar kechasi bo'layotganini hisobga olib, ifodalarni to'g'ri joylashtirishi lozim. She'rning aslida mavjud dramatik va sirli muhitini qayta tiklash uchun tafsilotlarni aniq va jiddiy ohangda ifodalash kerak. Asliyatdagi "overslept himself" jumlasini qahramonning kechasi o'lish sababini qisqacha, ammo kuchli tarzda yetkazadi, bu tarjimada ham aks ettirilishi kerak. Mazkur xato she'r va asarning butun kontekstiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki she'r voqealar rivojini oldindan belgilab beruvchi asosiy element hisoblanadi. Shu sababli, tarjimada mazmunni buzmasdan, lingvistik va hissiy moslikni saqlash juda muhimdir.

Asl she'rda quyidagi qatorlar keltirilgan:

"Six little nigger boys playing with a hive;

One got in choked, and then there were five."

Tarjimadagi versiya esa shunday ifodalangan:

"Olti negr bolasi asalari boqishdi,



Beshta qolishdi so‘ngra, birini ari chaqdi.”

Asliyatda “playing with a hive” ifodasi “asalarilarning uyasi bilan o‘ynash” yoki “asalarilarning uyasida o‘ynash” degan ma‘noni anglatadi. Bu yerda qahramonlar asalarilar bilan o‘ynab, ularning uyasiga yaqinlashishadi. Tarjimada esa bu "asalarilarning boqishdi" deb tarjima qilingan, bu esa noto‘g‘ri va noaniq. “Boqish” so‘zi asalarilarning parvarish qilishni bildiradi, lekin she‘rda asalarilarning boqish emas, balki ularni uyasida o‘ynash tasvirlanmoqda. Tarjimadagi "ari chaqdi" ifodasi biologik nuqtai nazardan ham to‘g‘ri emas. Asal ari, odatda, himoya maqsadida tishlaydi yoki chaqadi, lekin she‘rda muhokama qilingan voqea, asalarilarning bolalarga zarar yetkazishdan ko‘ra, ularning uyasini buzish bilan bog‘liq. Tarjimada shunday o‘zgarish kiritilishi kerak edi: “Arilar uyasini buzdi” yoki “ari uyasini buzib, bolani chaqdi”. Asliyatdagi she‘rda bolalar arilar uyasi bilan o‘ynashadi va biri aridan zarar ko‘rib o‘ladi. Tarjimada "ari chaqdi" ifodasi bolalarning o‘limi sababini noto‘g‘ri aks ettiradi va dramatik ta‘sirni zaiflashtiradi. Bu yerda asli arilar uyasini buzishdan so‘ng chaqish yuzaga kelishi kerak bo‘lgan muammo.

She‘rning asl qatori:

“Four little nigger boys going out to sea;

A red herring swallowed one, and then there were three.”

Tarjimadagi versiya esa shunday:

“To‘rtta negr bolasi cho‘mildilar dengizda,

Biri qarmoqqa tushdi, uchovlon qoldi birga.” Asliyatda “A red herring swallowed one” iborasi mavjud. Bu yerda “red herring” (qizil herring) bir turdagi baliq bo‘lib, majoziy ma‘noda “herring” iborasi odamlarni chalg‘itish yoki asosiy masaladan e‘tiborni chalg‘itishga ishlatiladi. She‘rda esa “qizil herring” baliq bir bolani “yutib yuboradi”, va bu bolaning o‘limiga olib keladi. Tarjimada bu holat "qarmoqqa tushdi" deb tarjima qilingan,



lekin bu holatning ma'nosi va biologik asosini aniq aks ettirmaydi. Qaramoqqa tushish baliqchilikdagi oddiy holatni ifodalaydi, ammo she'rda asliyatda voqea "qizil herring" baliqning bolani yutishi sifatida tasvirlangan. Tarjimadagi "qarmoqqa tushdi" o'limni ifodalashda noto'g'ri va yengil ifoda bo'lib qolgan. "A red herring" atamasi asliyatda majoziy ma'noda ishlatiladi, bu esa biror narsa yoki hodisaning muhim bo'lgan qismini yashirish yoki o'zgartirishni anglatadi. Tarjimada esa bu noaniqlikning hammasi yo'qolib, "qarmoqqa tushdi" kabi oddiy va aniq bir tasvir qoldi. Bu esa o'quvchining asarning ma'nosini to'liq anglashiga halaqit beradi.

She'rning asl qatori:

"Two little nigger boys sitting in the sun;

One got frizzled up, and then there was one."

Tarjimadagi versiya esa shunday:

"Ikki negr bolasi yotdi jaziramada,

Biri kuyib bo'ldi kul, qoldi biri aftoda."

Asl she'rda "frizzled up" ifodasi ishlatilgan bo'lib, bu tasvir bolaning kuyib qolishini, ya'ni issiqdan yoki olovdan zararlanishini anglatadi. "Frizzled" so'zi asosan "kuyish" yoki "kuydirish" ma'nosini beradi, lekin bu ibora maxsus biroz yumshoqroq va noaniq bir holatni tasvirlaydi. Tarjimada esa "kuyib bo'ldi kul" deb tarjima qilingan, bu aniq o'limni ifodalaydi, lekin asl she'rda frizzled so'zi o'limni bevosita anglatmaydi, balki biror narsa tomonidan zararlanishni, masalan, issiqdan kuyish yoki boshqa shunga o'xshash holatni anglatadi. "Frizzled up" iborasi asliyatdagi voqea tasvirida bolaning faqat kuyish holatini, ammo o'limni emas, ifodalashga yo'naltirilgan. Tarjimadagi "Biri kuyib bo'ldi kul" ifodasi o'limni to'liq va aniq qilib ta'riflaydi, lekin asl she'rda buning faqat ehtimoliy



bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Tarjimadagi “aftoda” (qoldi biri afzolda) so‘zi ham biologik yoki muhim holatni aks ettirmaydi, va o‘quvchi uchun voqeani tushunishni murakkablashtiradi.

Agata Kristining “Ten Little Soldiers” asarining tarjimasi ba’zi noaniq o‘zgarishlar va noto‘g‘ri tarjimalar bilan amalga oshirilgan. Bu, asar syujeti va dramatik ta’sirini zaiflashtirdi. Maxsus huquqiy va biologik atamalar, shuningdek, majoziy iboralar to‘g‘ri tarjima qilinmay, asl ma’no va kontekstni saqlab qolish qiyinlashdi. Tarjimada aniqlik va hissiy ta’sirni saqlash uchun, har bir iborani ehtiyotkorlik bilan va kontekstga mos tarzda tarjima qilish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Christie, Agatha. And Then There Were None. HarperCollins, 1939
2. CyberLeninka maqolalari to‘plami. “Agata Kristining ‘Kutilmagan mehmon’ asaridagi toponimlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi muammolar tahlili”
3. Davronbekning blogi: “Agata Kristi – Aktrisa va detektiv qirolichasi”
4. Uzbek Wikipedia maqolasi
5. Ziyouz adabiy portalidagi ma’lumotlar: “Agata Kristi: Angliya detektiv adabiyoti qirolichasi.” (Manba)
6. Tarjimonlar uchun lug‘atlar va atama qo‘llanmalari: Tarjima jarayonidagi lingvistik tahlil uchun Oxford English Dictionary va o‘zbek tiliga mos terminologik lug‘at